

QASHQAR RUBOBINING TAKOMILLASHUVI**Ozodjonov Kamronbek Ozodjon o'g'li**

Namangan davlat universiteti musiqa ta'lim va madaniyat fakulteti

Cholg'u ijrochiligi yo'nalish 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672411>

ANOTATSIYA: Ushbu maqola Qashqar rubobining paydo bo'lishi hamda asrlar mobaynida takomillashuvi, qadimgi xalqimizning ijtimoiy, madaniy hayotidagi o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek mohir sozanda va honandalarning Qashqar rubobi haqidagi fikr mulohazalari bilan boyitilgan.

KALIT SO'ZLAR: Musiqa, san'at, mahorat, ijrochilik, uslub, tajriba, Temp, o'lchov, alteratsiya, pauza alkabir. muyg'ur.

Qashqar rubob O'zbek xalqining qadimiy milliy cholg'usi hisoblanadi nafaqat O'zbek xalqining balki Tojik, Turkman, Uyg'ur xalqlarining ham sevimli cholg'usi hisoblanadi. MUSIQA, kuyning yangrashi, albatta, musiqa cholg'ular yordamida amalga oshiriladi. Ana shunday cholg'ulardan biri bu Qashqar rubobidir. Rubob tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qashqar rubobi Xitoyning uyg'ur viloyatidagi Qashqar shaxrida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham Qashqar rubobi deyiladi. O'sha davirning savdogarlari Qashqar rubobining bizning o'lkaga kirib kelishiga zababchi bo'lgan hamda etnograflar va musiqachilar tomonidan bu cholg'u ommalashib borgani biz qadimiy qo'lyozmalardan ma'lum. Bizga malumki musiqa shunos olimlar o'z asarlarida Qashqar rubob haqida ko'plab fikrlar yuritganlar. Xususan Abu Nasr Muhammad Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al- musiqa alkabir") kitobida Abu Ali Ibni Sinoning "Davolash kitobi" ("Kitob um-shifo") qomusida keltirilishicha Insonni musiqa orqali davolash haqida so'z borgan .Al Xorazmiyning X- asr "Bilimlar kaliti" ,Safiuddin Urmaviyning "Oliyjanoblik haqida kitob" yoki "Sharafiy kitobi", Abdurahmon Jomiyning "Musiqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va halq cholg'u asboblari hamda Qashqar rubobi haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Ma'lumki o'sha davrlardagi Qashqar rubobining sozlanishi bugungi kundagi Qashqar rubobining sozlanishidan tubdan farq qiladi. O'tgan asrning 20-30yillarida o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya ishlari jadal ravishda amalga oshirila boshlandi. Rekonstruksiya ishlarida Qashqar rubob ham chetda qolmadi. Modernizatsiyalashtirishda Toshkentlik mashhur hofiz SHorahim SHoumarov, xorazmlik ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, Toshkentlik mashhur sozanda Usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirildi. Ularning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlari musiqiy cholg'ularning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida cholu diapozonini (eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo'lgan oraliq) kengaytirishdan iborat edi. Hammamizga



ma'lumki, milliy musiqiy cholg'ularimiz azal-azaldan faqatgina xona sharoitida ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, ularning tembr xususiyati ham aynan shunga mos edi.[1]

Xususan 1920-yillarning oxirida Gorpromsoyuz tomonidan musiqa cholg'ulari yasaydigan laborato'riya ochildi. Bu erga barcha malakali va tajribali ustozlar yig'ilgan edi. Ular o'z tajribalariga tayanib cholg'ularning ovozi kuchaytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Qashqar rubobi cholg'usining ovoz tarovati va tembr xususiyatlarini kuchaytirish yo'lida Usta Usmon Zufarov katta korpusda bir qancha Qashqar rubob, dutor, tanburlarning majmuasini yasaydi. Bu uning cholg'ularni takomillashtirish yo'lida qilingan birinchi ishi edi. Oldingi ustalar tovush chiqaradigan teshiklar, ya'ni rezanatorni kuydirish yo'li bilan yasashgan, Usta Usmon esa buni astalik bilan kesish orqali va harxil ko'rinishdagi o'ymakorlik bilan yasagan. Avvallari Qashqar rubobi dastasidagi bo'ylama pardalar, dastaga o'rnatigan mustahkam parda bilan diatonik tovushqator xromatik tovushqator bilan almashtirildi. Kosaning yog'och dekali qismi ijroga qulay bo'lishi uchun ancha ixchamlashtirildi. Dasta qismi uzaytirildi hamda dastaga xromatik tovushqatorlar o'rnatildi. Qashqar rubobining zamonaviy ko'rinishida dastasi uzun bo'lib, oxiri qayrigan bo'ladi. Kosasining oldida shoxga o'xshagan ikkita gajagi bor. Ular shakl berish bilan birga yuqori notalarni chalishga yordam beradi va ular chap qo'lga tayanch vazifasini ham bajaradi. Qashqar rubobi dastasida 19-tadan 25-tagacha parda bo'ladi. Eski ruboblarda pardalar ichakdan qilingan bo'lsa zamonaviy ruboblarning pardalari metaldan qilinadi. Qashqar rubobining beshta simi bor. Qashqar rubobining 5-tori odatda kvarta kivinta oralig'ida sozlanadi. Pastgi ikki sim juft chalinadi va ochiq cholganda 1-ya tovushi chiqaradigan qilib sozlanadi. 3-chi va 4-tinchi simlarham juft chalinadi simlar ochiq chalganda mi tovushini beradigan qilib sozlanadi. 5-sim odatda neylonsim bo'lib ochiq cholganda si tovushini beradigan qilib sozlanadi. Qashqar rubob uch qizimga bo'linadi, bular bosh qismi dasta qismi va kosa qismlaridan iborat. Qashqar rubobining bosh qismida quloqlari joylashgan, dasta qismida esa pardalar, kichik xarrak va shoxlari joylashgan. Kosa qismida esa kosasi, pardasi, xarragi, va ilmoqchalari mavjud. Qashqar rubobi asrlar davomida takomillashib hozirgi mukammal ko'rinishga keldi. Buning natijasida o'zbek xalq milliy cholg'usi bo'lgan Qashqar rubobida Yevropa klassik asarlarini ijro qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shunindek, O'zbekiston kompozitorlari Qashqar rubobi uchun yaratgan maxsus asarlari rubob ijrochiligining yangi-yangi ufqlarini ochib bermoqda.[2]. So'ngi yillarda yaratilayotgan maxsus asarlar ijro hamda o'quv dasturlarini boyitib kelmoqda.



Kompozitorlar ijodida Qashqar rubob cholg'usi uchun yaratilayotgan asarlarda milliylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvini kuzatishimiz mumkin. Mualliflardan S. Hayitboyevning "Ballarda", T. Azimovning "Durdona", M. Bafoyevning "Afsona", Q. Komilovning "Fantaziya" "mohim" poemasi, M. Otajonovning Qashqar rubob va orkestr uchun "konsert", R. Abdullayevning Qashqar rubob va simfonik orkestr uchun konsert, J. Charshimovning "tarix sadosi" kabi asarlarda milliy ohanglar zamonaviy garmoniyalar bilan yo'g'irilgan holda yaratilganligi bilan ijrochilar va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanmoqda. Qashqar rubobi ijrochiligi mohir sozanda va bastakorlar ijodi bilan chambarchas bog'liq. Bastakor va mashhur sozanda, O'zbekiston xalq artisti M. Mirzayev o'tgan asrning 50-60 yillarida juda sermazmun ijod qildi. Uning qashqar rubobi uchun yaratgan har bir asari xalq orasida tez ommalashdi. Ustozning ham bastakor sifatida, ham sozanda sifatida sermahsul ijodi qashqar rubobi sozini o'zbek xalqining har bir xonadoniga olib kirdi. Qashqar rubob sozandalaridan X. Nasriddinov ijodi ayniqsa tahsinga sazovordir. Bu sozanda Qashqar rubobida ikki yo'nalishda ijro etgan va jahon festivali g'olibi bo'lish bilan birga, o'zbek san'atini boshqa mamlakatlarda namoyish qilgan rubobchilardandir. Shuningdek 1984 yilda Ozarbayjon davlatining poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan xalqaro tanlovda G. Halmamedov III-konsertini Qashqar rubobida ijro etib faxrli birinchi o'rinni egallab shaxsan G. Halmamedovning olqishiga sazovor bo'ladi. Shunday qilib Qashqar rubobi hozirgi kunda ham o'zbek xalqining sevimli cholg'usi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.[2]

Xulosa o'rnida milliy cholg'uyimiz xisoblanmish Qashqar rubobi asrlar davomida takomillashib rivojlanib milliy ramzimizga aylangan desak ham adashmagan bo'lamiz. Bugungi kunda ham Qashqar rubobi cholg'usida Yevropaning shox asarlarini ijro etib bimalol Yevropa cholg'ulari bilan bellasha olayotgani yuqoridagi fikrlarimizni dalili desak adashmaymiz. Shuningdek Respublikamizda musiqa va san'at sohasini yanada rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlar natijasida ham cholg'u ijrochiligi san'atining rivojlanishiga yanada keng yo'l ochib berdi. Buning natijasida ham hozirgi kunda yoshlarimiz qator xalqaro tanlovlarda faxrli o'rinlar egallab qaytayotganlari ham quyidagi fikrlarimizning yaqqol namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.Wikivand.com.
2. S. Begmatov, M. Azamova, A. Jabborov. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent-2018.

